

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash
texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligining
malaka talablari**

ЎЗР ОУМТБ
Бўғаруқ № 367
" 21 " 08 2023 йил

Toshkent-2023 yil

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2023 yil « 21 » avgust dagi 367 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		Bet
1.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
1.2.1.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari	5
2.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga talablar	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya: Mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi	8
2.3.2.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8-9
	Bibliografik ma'lumotlar	10
	Kelishuv varag'i	11

1. 70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi shakllarida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi **70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.**

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor - o'qituvchilari;

– magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

– magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim tashkilotini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. 70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) magistratura talim yo'nalishi - fan va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasi yo'nalishi bo'lib, yer, suv, energetik va moddiy - texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida meva sabzavot va uzum mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va dastlabki ishlash; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash jarayonlarini optimallashtirish; tayyorlangan, saqlangan va qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatini oshirish, paxta xom ashyosini saqlash va dastlabki qayta ishlash kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi.

1.2.2. 70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash jarayonlari;
- dala ekinlari mahsulotlarini saqlash jarayonlari;
- paxta xom ashyosini saqlash jarayonlari;
- dala ekinlari mahsulotlariga dastlabki ishlov berish va qayta ishlash jarayonlari;
- meva-sabzavot mahsulotlariga dastlabki ishlov berish va qayta ishlash jarayonlari;
- paxta xom ashyosiga dastlabki ishlov berish va qayta ishlash jarayonlari;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;
- loyihalashtirish jarayoni;
- o‘quv jarayoni

1.2.3. 70811301 - Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyat;
- loyiha-texnologik faoliyat;
- servis xizmatini ko‘rsatish faoliyati;
- texnologik-ishlab chiqarish faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati.

1.2.4. 70811301 - Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy vazifalari.

70811301 - Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;
- meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda amaliy masalalarni yechish uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash;
- dala ekinlari mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda amaliy masalalarni yechish uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash;
- paxta xom ashyosini saqlash va dastlabki ishlashda amaliy masalalarni yechish uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash;
- o‘tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo‘yicha modellar, algoritmlar, usullar tadqiqot qilishi va ishlab chiqish;
- namunaviy metodikalar va boshqalar bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazishi va ularning natijalariga ishlov berish;
- ilmiy va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi, referat va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlarda ishtirok etish;
- ilmiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash;
- innovatsion ko‘rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etishi;
- innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

Loyiha-texnologik faoliyatida:

- saqlash omborlari va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini dastlabki ishlash korxonalarini loyihalash uchun zaruriy tayyorgarlik;
- meva-sabzavot, dala mahsulotlari va paxta xom ashyosini saqlash va dastlabki ishlashda texnologik xaritaning texnik qismini ishlab chiqish;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda sifatni baholashda milliy va xalqaro standartlardan foydalangan holda zamonaviy uslublar va asboblarni qo‘llash
- loyihalashda AKT va kompyuter texnikasini qo‘llash;
- dasturiy va loyihaviy hujjatlarni ishlab chiqish;
- meva-sabzavot, dala mahsulotlari va paxta xom-ashyosini saqlash va dastlabki ishlashda texnologik sxemalarni tuzish.

Servis xizmatini ko‘rsatish faoliyatida:

- xizmat ko‘rsatish sohasida me‘yoriy- huquqiy hujjatlardan foydalana olish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va dastlabki ishlash bo‘yicha servis xizmati ko‘rsatish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash bo‘yicha soha xodimlariga maslahat berish.

Texnologik-ishlab chiqarish faoliyatida:

- fermer xo‘jaligi yoki boshqa shakldagi xo‘jaliklarning texnologiy bo‘lib ishlash;
- meva-sabzavot, dala va paxta xom-ashyosi mahsulotlarining saqlash va dastlabki qayta ishlashda yangi navlaridan foydalanishni asoslash;
- meva - sabzavot, dala va paxta xom-ashyosi mahsulotlarini saqlashda istiqbolli texnologiyalarni qo‘llash;
- meva - sabzavot, dala va paxta xom-ashyosi mahsulotlarini saqlash inshootlaridan foydalanish;
- meva - sabzavot, dala va paxta xom-ashyosi mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash jarayonlari va tadbirlar bajarilishi sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda qo‘llash;
- meva-sabzavot, dala va paxta xom-ashyosi mahsulotlarini dastlabki ishlashda istiqbolli texnologiyalarni qo‘llash;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o‘qitishni tashkil qilish va korporativ ma‘lumotlar bazasini rivojlantirish;
- meva-sabzavot, dala va paxta xom-ashyosi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash faoliyatini boshqarish sifatini nazorat qilish;
- meva-sabzavot, dala va paxta xom-ashyosi mahsulotlarini saqlash jarayonlari va tadbirlarini rejalashtirish hamda ularni ishlab chiqarishga tadbiq etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

2. 70811301 - Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, texnologik muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyatida undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- o‘zlashtirgan bilimlarini ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy

faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2.Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishlash;

- mahsulotlarni saralash;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining buyurtmalarini umumlashtirish yo'li orqali qayta ishlangan mahsulotlarga bo'lgan talabning har yilgi bashoratlarini shakllantirish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashda resurstejamkor va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni bilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarni rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tadbiq etishni bilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lish;

- meva-sabzavotlar, don va dala mahsulotlarini saqlash jarayonlarini ilmiy asoslangan holda tashkil etish;

- qayta ishlash jarayonlariga zamonaviy va resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash;

- ishlab chiqarish faoliyatida boshqarish sifatini nazorat qilish va tadbiq etish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarni rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tadbiq etishni bilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishni bilish;

- kasb vazifalarini avtomatlashtirish va komyuterda modellashtirish metodlarini, eng maqbul yechimlar topishning oqilona usullarini egallagan bo'lishi;

- bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va ilmiy jamoalarni boshqarishni ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- zamonaviy axborot tizimlaridan foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta'lim usullarini egallagan bo'lish

- **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar**

- Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

- Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

- Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

- Mutaxassislik bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

- ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

- pedagogik amaliyot - pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

- **2.3.1. Kvalifikatsiya: Texnolog, tadqiqotchi-pedagog**

2.3.2. 70811301- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

Q'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36
Ilmiy-pedagogik ish	360	12
Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12

2.3.3. 70811301 - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1380	46	1,2,3
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'MM1404	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	QXMSQITUM 1406	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashda ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1

1.04	QXEFBM1404	Qishloq xo'jalik ekinlari fiziologiyasi va biokimyosi	180	6	1
1.05	QXMSNAM1406	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlashning nazariy asoslari	180	6	2
1.06	QXMSSBBM2404	Qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatiga sensorik baho berishning nazariy asoslari	120	4	3
1.07	QXMSBIAM2406	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va birlamchi ishlov berishning ilmiy asoslari	180	6	3
1.08	DEMTIAM2406	Dala ekinlari mahsulotlarini tayyorlash, saqlashda dastlabki ishlov berishning texnologik va ilmiy asoslari	180	6	3
1.09	MSMIBM1406	Meva-sabzavot mahsulotlariga ishlov berishning ilmiy asoslari	180	6	1
2.00		Tanlov fanlar	420	14	
2.00		<i>Tanlov fanlar 3 ta</i>	420	14	2,3
		Jami	1800	60	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	
		Jami	1800	60	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Tayanch so'zlar:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, dastlabki qayta ishlash, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

**KELISHUV VARAG'I
ISHLAB CHIQLDI**

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinci prorektori  **S. Islamov**

2023_yil « 10 » 07

M.O'

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  **Sh. Yakubov**

2023 yil « 21 » 07

M.O'.

**Jizzax politexnika instituti
rektori professor**
Rektor  **A. Usmankulov**

2023 yil « 19 » 07

M.O'

**“G'alla-Alteg” AJ -
ishlab chiqarish direktori**

Direktori  **A. Qodirov**

2023_yil « 18 » 07

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq
xo'jaligi vazirligi ilmiy-tadqiqot,
agromaslahatlar va ta'limni
rivojlantirish boshqarmasi**

Boshqarma boshlig'i

 **A. Shamsiyev**

2023 yil « 20 » 07

M.O'.

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” milliy
tadqiqot universiteti**

Rektor  **B. Mirzaev**

2023 yil « 18 » 07

M.O'.

**Akademik M. Mirzaev nomidagi
Bog'dorchilik, uzumchilik va
vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti**

Direktor  **U. Abdug'aniev**

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

70811301- *Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida*

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, rektori, professor B.S.Mirzayev, Jizzax politexnika instituti rektori, professor A.K.Usmonkulovlar birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talabi va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70811301 - *Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) mutaxassisligi.*

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejani ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talabi o'quv reja va fan dasturi xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor**

S. Islamov

**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy
tadqiqot universiteti rektori, professor**

B.S.Mirzayev

**Jizzax politexnika instituti
rektori, professor**

A.Usmonkulov